

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**DAVRONOV BAXTIYOR XASANOVICH**

**CHETDAN KELTIRILGAN SUT YO‘NALISHIDAGI ALP VA  
TOGGENBURG ZOTLI ECHKILARNING XO‘JALIK FOYDALI  
BELGILARINI O‘RGANISH**

**06.02.03-Xususiy zootexniya: Chorvachilik mahsulotlarini  
ishlab chiqarish texnologiyasi**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlение avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)**

**Contens of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)**

**Davronov Baxtiyor Xasanovich**

Chetdan keltirilgan sut yo‘nalishdagi Alp va Toggenburg zotli  
echkilarning xo‘jalik foydali belgilarini o‘rganish..... 3

**Давронов Бахтиёр Хасанович**

Изучение хозяйственно-полезных признаков импортированных коз алпийской и  
тоггенбургских пород.....21

**Davronov Bakhtiyor Khasanovich**

The study of economically useful traits of the Alpine and Toggenburg breeds of  
imported dairy goats..... 40

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published work..... 44

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**DAVRONOV BAXTIYOR XASANOVICH**

**CHETDAN KELITIRILGAN SUT YO‘NALISHIDAGI ALP VA  
TOGGENBURG ZOTLI ECHKILARNING XO‘JALIK FOYDALI  
BELGILARINI O‘RGANISH**

**06.02.03-Xususiy zootexniya: Chorvachilik mahsulotlarini  
ishlab chiqarish texnologiyasi**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2019.3.PHD/Qx481 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

---

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ruziyev Raxmonqul Istamovich**

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

**Rasmiy opponentlar:**

**Shaptakov Erkin Suyunovich**

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dosent.

**Raximov Madamin Alijonovich**

qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat agrar universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali huzuridagi qishloq xo‘jaligi va veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100117, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20-mavze, 35A-uy. Tel: (99870) 9758311); e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100117, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20-mavze, 35A-uy. Tel: (99870) 9758311; e-mail: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz); faks: (99870) 9758311).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_»\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 -yil «\_\_\_»\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**N.E.Yuldashev,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, v.f.d., professor.

**M.E.G‘oyipova,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, v.f.f.d. (PhD).

**S.I.Mavlanov,**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, v.f.d., professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo aholisining jadal o'sishi natijasida ularning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi kundan-kunga ortmoqda. Bugungi kunda dunyoda chorvachiligida echkichilik tarmog'i kengayib bormoqda va bu esa kelajak uchun istiqbolli rejalarni tuzishni toqozo etadi. BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotiga ko'ra jahonning 200 dan ziyod mamlakatlarida echkilar urchitilib, ularning bosh soni 1.174.322 ming boshdan ko'proqni tashkil etadi. Butun yer shari bo'yicha sut ishlab chiqarish hajmi 18,7 mln. tonnani tashkil qiladi. Shundan 6 mln. dan ko'prog'i Osiyo mamlakatlari hisoblangan Hindiston davlatida ishlab chiqariladi. Dunyo bo'yicha ishlab chiqariladigan echki sutini asosan Bangladesh, Sudan va Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri keladi. Echki suti ishlab chiqarish umumiy hajmining 75% Osiyo va Afrika mamlakatlari hisobiga to'g'ri keladi. Sutdor echkilar naslini ko'paytirish muammosini hal etish, seleksiya-naslchilik ishlariga e'tibor qaratish, naslli takalar bilan ona echkilarni urug'lantirishni saralash rejasiga muvofiq yo'lga qo'yish va yuqori mahsuldor echkilardan seleksiya guruhlarini tashkil etish tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon mamlakatlarida echkichilik chorvachilikning eng qadimiy sohalaridan biri hisoblanib, echkilarni urchitish, ularni ko'paytirish, irsiy va mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida 3681 ming bosh, Qozog'iston Respublikasida 23268 ming bosh, Turkmaniston Respublikasida 2300 ming bosh echkilar urchitib, parvarishlanmoqda<sup>1</sup>. Bu davlatlarda echkilarning zaanen, oq rus, alp kabi sersut zotlari, nubiy, toggenburg kabi seryog' sutli zotlari, angor, sovet jundor zoti kabi jun yo'nalishidagi, pridon, tog'li-oltoy, kashemir, orenburg tivit yo'nalishidagi zotlar, mahalliy echki zot guruhi, damara, bursk, pafuri kabi go'sht yo'nalishidagi zotlari urchitilmoqda. Zotdor hamda mahalliy echkilardan olingan duragaylardan foydalanib, ularning hayotchanligi, sut va go'sht mahsuldorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish keng assortimentdagi ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar keng muqiyosida amalga oshirilmoqda. Shu sababli echki suti bolalar ozuqasi sifatida va go'shti parhez bop mahsulot sifatida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizga chetdan olib kelinayotgan sut yo'nalishidagi echki zotlarini respublikamizning iqlim sharoitiga moslashtirish, mahalliy ozuqalardan foydalanib, to'laqiy matli ratsion asosida boqishni tashkil qilish, zotlarni urchitishda tanlash va juftlash ishlarini amalga oshirish, juftlashtirishda faqat yaxshilovchi nasl toifasiga ega naslli takalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Echkilarning zot andozasi talablari darajasida sut mahsuldorligini yuzaga chiqarishda zotning xo'jalik foydali va seleksiya belgilariga ahamiyat berish orqali respublika xo'jaliklarida ko'p sut beradigan naslli echkilarni parvarishlab yetishtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> <https://bigenc.ru/agriculture/text>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning 30- va 32- maqsadlarida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish vazifasi belgilangan<sup>2</sup>. Shuningdek, davlat rahbarining 2021 yil 1 apreldagi PF-6198-sonli Farmoni 1- ilovasidagi chora-tadbirlar dasturining V.Chorvachilikni rivojlantirish sohasida “Jaydari “merinos” zotli qo‘y va “angor” zotli echkilarining sermahsul genotiplarini yaratish go‘shtdor va jundor qo‘ylarning genofondini saqlash va ko‘paytirish”<sup>3</sup> tadbiri bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Suldor echkilar naslini ko‘paytirish muammosini hal etish, seleksiya-naslchilik ishlariga e‘tibor qaratish, naslli takalar bilan ona echkilarni urug‘lantirishni saralash rejasiga muvofiq tashkil etish va yuqori mahsuldor echkilardan seleksiya guruhlarini tashkil etish tizimini yo‘lga qo‘yish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va atrof-muhit muhofazasi fanlari» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Echkichilikda suldor echki zotlarini xorijdan keltirib urchitish, iqlimlashtirish, xo‘jalik foydali belgilarini o‘rganish, davrlar kesimi asosida oziqlantirish texnologiyasini joriy etish echkichilik tarmog‘ida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Keyingi paytlarda O‘zbekiston Respublikasida echkilarining turli zotlar urchitilmoqda. Echkichilikda zuldor echkilarining hozirgi davrdagi ahamiyati va ularning ta‘rif-tavsifi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar P.F.Kiyatkin, A.A.Raximov, F.H.Mamadaliev, S.Y.Yusupov, M.SH.Ismoilov, I.Y.Eshmatov, B.A.Svanqulov, A.U.Toreshova, A.A.Xamidov, M.A.Xuseinova. Qozog‘iston Respublikasida Y.V.Eydrigevich, A.I.Janderkin, M.T.Nuraliev, Y.Musajanov, B.T.Kulataev. Tojikiston Respublikasida I.G.Lebedev, G.G.Zelenskiy, I.Y.Bixovskaya, M.D.Zakirov, D.E.Ergashev, F.F.Kosimov, S.Obidjanov, A.B.Karakulov. Qirg‘iziston Respublikasida N.Djumabekov, I.A.Almeev. Turkmaniston Respublikasida E.M.Erman, A.A.Shustova. Rossiya Federatsiyasida S.P.Urusov, A.S.Shuvarikov, A.I.Chikalev, A.I.Yeroxin, Y.A.Yuldashbaev, V.K.Toshev, I.Novopashina, L.P.Moskalenko, I.L.Mason, H.Singh, Rose, J.F.Morgan, H.Hoste va boshqalar tomonidan berilgan. Tadqiqotchi olimlar echkilarni tanlash, juftlash, sut, go‘sh, jun mahsuldorligini oshirish, o‘shish, rivojlanishi va konstitutsional mustahkamligi, belgilarning irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi, naslchilik ishlarini takomillashtirish, bosh sonini ko‘paytirish, oziqlantirish, asrash va urchitish muammolarini o‘rganishgan.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.04.2021 yildagi PF-6198-son Chorvachilikni rivojlantirish sohasi to‘g‘risida.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining QX-A-QX-2018-228 "Xorijdan keltirilgan sut yo'nalishidagi echkilarning zot ichidagi yangi tizimlari va oilalarini yaratish" (2018-2020 y.) mavzusidagi amaliy loyiha bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Chetdan olib kelingan sut yo'nalishdagi Alp va Toggenburg zotli echkilarni keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitida sanoat asosida qurilgan majmuada boqishni ularning xo'jalik foydali belgilariga ta'sirini o'rganish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sut yo'nalishdagi sof zotli echkilarni o'sish va rivojlanishini davrlar kesimida o'rganish;

fasllar bo'yicha echkilarning klinik va gematologik ko'rsatkichlarini aniqlash; echkilarni oziqlantirish ratsionini ishlab chiqish va ozuqalarning kimyoviy tarkibini tahlil qilish;

ozuqa sarfini mahsulot bilan qoplanish darajasini o'rganish;

echkilarini sut mahsuldorligini va sutning tarkibini kimyoviy tahlil qilish;

iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

**Tadqiqot obyekti** sifatida Sirdaryo tumanida sanoat asosida qurilgan "INZIM TEX" Britaniya-O'zbekiston qo'shma korxonasi MCHJga qarashli echkichilik majmuasidagi, Avstriyadan olib kelingan Alp va Toggenburg echki zotlari tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** ushbu echki zotlarini O'zbekistonnig keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitiga moslashishi, ko'payishi, asrash va boqish usullari, shu jumladan, uloqlarning o'sishi, rivojlanishi, mahsuldorlik, klinik va gematologik ko'rsatkichlari, davrlar kesimida oziqlantirish texnologiyalari tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlarda umum zootexnikaviy (sut mahsuldorligi ko'rsatkichlari, oziqlantirish, iste'mol qilingan ozuqani mahsulot bilan qoplash), o'sish, rivojlanish, eksteryer, tana tuzilish indeksleri, klinik va gematologik ko'rsatkichlar zootexniya-veterinariyada umum qabul qilingan usullar asosida statistik (o'rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi) hamda iqtisodiy (jami harajatlar, 1 s mahsulotning tannarxi, harid narxi, sof foyda, samaradorlik darajasi) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor chetdan olib kelingan Alp va Toggenburg zotli echkilarni respublikaning sanoat komplekslari sharoitida yil davomida yopiq binolarda parvarishlash va ularning biologik xususiyatlari, hayotchanligi va fiziologik parametrlari, echkilarning mahsuldorligi va og'iz suti, sutining kimyoviy tarkibi, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlangan;

respublikamizning o'zgaruvchan iqlim sharoitida Alp va Toggenburg zotli urg'ochi echkilarning 330 kun mobaynida (18 oy) jami ozuqa birligi 270,17 kg oziqa sarflangan, natijada tirik vazni  $59,79 \pm 0,67$  kg. ni tashkil qilib, Alp zotli urg'ochi echkilar tengqurlari Toggenburg urg'ochi echkilaridan 2,69% ga yuqori bo'lganligi, tirik vazndagi ishonchlilik darajasining farqi  $P > 0,99$  bo'lganligi isbotlangan;

bir xil ratsionda oziqlantirilgan urg'ochi echkilarda tajribaning 14-14,5 oyligidan 18-18,5 oylikgacha Alp urg'ochi echkilari tengqurlari Toggenburg urg'ochi echkilariga nisbatan 120 kunlik o'sish davomida  $11,82 \pm 0,30$  kg mutlaq o'sishga erishib, tengqurlaridan 2,98 kg. ga yoki 25,21% ga yuqori vaznga ega bo'lganligi isbotlangan.

Alp zotli echkilarni sotishdan olingan sof foydasi 770323,0 so'mni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 198852 so'mga yuqori bo'lgan. Rentabellik darajasi Alp zotli echkilar 33,0% ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 8,5% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan;

sut sotishdan olingan foyda o'rtacha Alp zotli echkilarda 3228570,0 so'm, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarda o'rtacha sut sotishdan olingan foyda 3082500,0 so'mni tashkil qilib, Alp zotli echkilardan tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 146070 so'm ko'p foyda olinganligi isbotlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Chetdan olib kelingan sut yo'nalishdagi Alp va Toggenburg zotli echkilarni sanoat asosida qurilgan majmuada boqish mutlaq, kunlik va nisbiy o'sish oshishiga olib kelishi aniqlangan.

Respublikamiz keskin iqlim sharoitining fasllar kesimida va turli yosh davrlarida Alp va Toggenburg zotli echkilarning klinik-gemotologik ko'rsatkichlari o'rganilganda, har ikkala zot o'rtasida katta farq sezilmagan va ular respublikamiz iqlim sharoitiga yaxshi moslashganligi aniqlangan.

Sirdaryo viloyati sharoitida sanoat kompleksida binolarda boqilgan Alp va Toggenburg zotli echkilar uchun ularning yoshi, fiziologik holati va mahsuldorligidan kelib chiqqan holda me'yorlashtirilgan ratsion ishlab chiqilgan va ratsion tarkibi laboratoriya sharoitida o'rganilib, tahlil qilingan.

O'stirish, parvarishlash, bo'g'ozlikning 1- va 2-davri hamda laktatsiyaning iydirish, asosiy sut berish va sutdan chiqarish davrlari uchun ozuqa sarfi va uni mahsulot bilan qoplash darajasi o'rganilgan. Bunda, 1 kg tirik vazn ortishi va 1 kg sut hosil bo'lishi uchun sarflangan ozuqa miqdorlari aniqlangan.

Alp va Toggenburg zotli echkilarning O'zbekistonda sanoat asosida boqishdagi sut mahsuldorligi, sutining tarkibi kimyoviy laboratoriya sharoitida o'rganilgan.

Chetdan olib kelingan Alp va Toggenburg zotli echkilarning respublikamiz iqlim sharoitiga yaxshi moslashishi evaziga bu zot echkilarini sanoat asosida boqish echkichilik tarmog'idan olinadigan sut mahsuldorligining oshishiga va yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib kelishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Zamonaviy andozalar, uslublar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, chorvachilik fermer xo'jaliklarida doimiy qo'llaniladigan uslublar asosida laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarini olib borilganligi, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy ishlab chiqarish markazi, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi aprotatsiya komissiyalari tomonidan ijobiy baho berilganligi, olingan natijalar biometrik tahlildan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalarini joriy etish dalolatnomalari bilan tasdiqlanganligi va ilmiy natijalari yetakchi ilmiy nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Chetdan keltirilgan sut yo‘nalishidagi Alp va Toggenburg zotli echkilarning xo‘jalik foydali belgilarini o‘rganish mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

Sut yo‘nalishidagi Avstriyadan olib kelingan Alp va Toggenburg zotli echkilarning sut mahsuldorligi sanoat asosida qurilgan komplekslarda urchitish, bo‘g‘ozlik, iydinsh va sut berish davrlari kesimida oziqlantirishni echkilarning sut mahsuldorligiga va sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini ilmiy asosda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa import qilingan turli sudor echkilarning sut mahsuldorligini oshirish, mahsulot birligiga ozuqa sarfini kamaytirish, yuqori sifatli sut ishlab chiqarishni ko‘paytirishda ilmiy asoslangan davrlar kesimida oziqlantirish usullarining samaradorligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chetdan keltirilgan sut yo‘nalishidagi alp va toggenburg zotli echkilarning xo‘jalik foydali belgilarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Echkichilik sanoat kompleksida 50 bosh Alp va 50 bosh Toggenburg zotli sudor echkilarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi “INZIM TEX” Britaniya-O‘zbekiston MCHJ echkichilik naslchilik xo‘jaligida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2022-yil 29-iyuldagi №02/23-314-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada echkichilik naslchilik xo‘jaligi podasida echkilarni davrlar kesimida 60 kunlik iydinsh davrida 145 kunlik asosiy sut berish davrida 100 kunlik sudan chiqarish davridagi oziqlantirish texnologiyasi joriy etilgan.

Ohangaron tumani, “Ohang Xolto‘rayev Sardor” fermer xo‘jaligiga qarashli podasida joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2022-yil 29-iyuldagi №02/23-314-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mahalliy echkilarda davrlar kesimida oziqlantirish natijasida 305 kun laktatsiya davrida mahalliy echkilardan 450 kg sut sog‘ib olingan bo‘lib, bu esa 131600 so‘m sof foyda olingan. Echki suti ishlab chiqarish rentabelligi mahalliy echkilarda 23% ga oshganligi isbotlangan.

Andijon viloyati Oltinko‘l tumani, “Baxt imkon rivoji chorvasi” fermer xo‘jaligidagi 35 bosh Zaanen zotli sut yo‘nalishidagi echkilarda texnologik davrlarda oziqlantirish texnologiyasi joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2022-yil 29-iyuldagi №02/23-314-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada xoriydan keltirilgan echkilarda davrlar kesimida oziqlantirish natijasida 300 kun laktatsiya davrida Zaanen zotli echkilardan 755 kg sut sog‘ib olinib, sotilganda 922342 so‘m sof foyda olingan. Echki suti ishlab chiqarish rentabelligi Zaanen zotli echkilarda 23% ni tashkil qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashi yig‘ilishlarida (2019-2021 y.), halqaro konferensiyalarda, respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda, “INZIM TEX” MCHJ-echkichilik naslchilik xo‘jaligida yillik hisobot yig‘ilishlarida muhokamadan o‘tkazilib, ijobiy baholangan. Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi aprobatsiya komissiyasida ijobiy baholangan (2019-2021 y).

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, halqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida 2 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning xajmi 103 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida bajarilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati ilmiy jihatdan asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinishi hamda dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida Alp va Toggenburg zotli sut yo‘nalishidagi echkichilikning istiqboli, xalq xo‘jaligida sut, go‘sht, jun va tivit mahsuldorlik xususiyatlari, Alp va Toggenburg zotli echkilarni sanoat asosida boqish, echkilarning mahsuldorlik xususiyatlarining oziqlantirish omiliga bog‘liqligi, ularning sut mahsuldorligi yo‘nalishida respublika va xorij olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlil qilinib, tegishli xulosalar qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqotlarni o‘tkazish joyi, manbai va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan hududning tabiiy-iqlim sharoiti, tadqiqot manbai va tadqiqotni bajarish uslublari bayon qilingan.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining tajriba qismi 2019-2021 yillarda Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi ”INZIM TEX” MCHJ mas’uliyati cheklangan jamiyatida sut yo‘nalishidagi sof zotli Alp va Toggenburg echkilarida olib borildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Avstriyadan keltirilgan sof Alp va Toggenburg zotli sut yo‘nalishidagi echkilar tanlangan. Tadqiqotlar davomida hayvonlarni oziqlantirish, ozuqalarning to‘yimlilik va kimyoviy tarkibi, yeyiluvchanligi, tajribadagi echkilarning tirik vazni, eksteryeri, tana tuzilishi indeksleri, nisbiy va mutlaq o‘sish ko‘rsatkichlari, klinik va gematologik ko‘rsatkichlari, ozuqani mahsulot bilan qoplash darajasi, tadqiqot natijalarini iqtisodiy baholash, tajribalarda olingan ma’lumotlarga biometrik ishlov berishda qo‘llanilgan usullar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot natijalari va muhokamasi”** nomli uchinchi bobida tajribadagi Alp va Toggenburg echkilarini saqlash texnologiyasi, tajribadagi echkilarga davrlar kesimida ozuqa sarfi, o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, ulolarning ozuqa sarfini qoplash xususiyatlari, echkilarning tana o‘lchamlari ko‘rsatkichlari, ularning klinik va gematologik ko‘rsatkichlari, Alp va Toggenburg zotli echkilar yelinining morfologik va funksional xususiyatlari, birinchi tuqqan echkilarni sersut qilish orqali sut mahsuldorligini oshirish yo‘nalishida olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi "INZIM-TEX" MChJ Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligida xorijdan import qilingan sudor echkilar sut mahsuldorligini yuzaga chiqarishda echkilarni urchitishga tayyorlash, qochirish, tugʻdirish va laktatsiya davomida sut miqdorini oshirishga qaratilgan asrash va oziqlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari yoʻlga qoʻyildi.

**Xorijdan olib kelingan sudor echkilarning mahalliy sharoitda oʻsish dinamikasi.** Yevropaning Avstriya davlatidan 340 bosh echki uloqchalari 7-7,5 oylik yoshida Sirdaryo viloyatining, Sirdaryo tumanidagi "INZIM-TEX" MChJ ning echkichilik boʻyicha naslchilik xoʻjaligiga olib keltirildi. Olib kelingan 340 bosh uloqchalarining 200 boshi Alp zotiga mansub, 140 boshi Toggenburg zotiga mansub.

1-jadval

**Tajribadagi echkilarning oʻsish dinamikasi, kg**

Yoshi, oylik	Tirik vazni	Cv,%	Mutlaq oʻsish, kg	Cv,%	Kunlik oʻsish, g	Cv,%
<b>Alp zotli echkilar</b>						
4-4,5	25,0±0,16	1,44	-	-	-	-
7-7,5	30,67±0,21	1,52	5,67±0,15	0,48	62,98±0,95	5,88
14-14,5	47,97±0,34	1,68	17,30±0,25	0,95	82,39±1,02	6,70
18-18,5	59,79±0,65	1,80	11,82±0,30	1,25	98,48±1,14	8,04
<b>Toggenburg zotli echkilar</b>						
4-4,5	23,7±0,24	1,45	-	-	-	-
7-7,5	30,2±0,25	1,63	6,5±0,14	0,45	72±0,89	4,46
14-14,5	49,34±0,41	1,77	19,14±0,27	0,87	83,33±0,98	6,12
18-18,5	58,18±0,57	1,88	8,84±0,35	0,98	73,68±1,06	7,47

Keltirilgan 1-jadvaldagi maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, 7-7,5 oylik yoshida tirik vazni Alp zotli uloqlarda oʻrtacha 30,67 kg. ni tashkil qilib, Toggenburg zotili tengqurlariga nisbatan tirik vazn boʻyicha 2,03% ga yuqori boʻlgan boʻlsa, 11-11,5 oylik yoshiga kelib 3,77% ga, 12-12,5 oylik yoshiga kelib 5,44% ni tashkil qildi.

Tajribadagi Alp zotli uloqlarning tirik vazni oʻrtacha 7-7,5 oylik yoshida 30,67 kg. ni tashkil qilgan boʻlsa, tengqurlari Toggenburg zotli uloqlarning oʻrtacha ogʻirligi 30,2 kg. ni tashkil qilib, nisbiy oʻsishi Alp uloqlarda 1,9 kg. ni, tengqurlari Toggenburg uloqlarda 15,8% ga yuqori boʻldi. Tajribaning 14-14,5 oylik yoshiga kelib nisbiy oʻsish boʻyicha Toggenburg urgʻochi uloqlarda bu koʻrsatkich tengqurlariga nisbatan 9,61% ga ortiqcha boʻldi.

Har qanday hayvonni jadal oʻsishini baholashda kunlik oʻsish koʻrsatkichlari orqali baholanadi. Tajriba boshida 7-7,5 oylik yoshida kunlik oʻsish zotlar aro uncha katta farq qilmadi. Tajribaning 14-14,5 oylik yoshiga kelib kunlik oʻsish oʻrtacha Alp urgʻochi echkilarda 39 g. ni tashkil qilgan boʻlsa, tengqurlari Toggenburg urgʻochi echkilarda Alp tengqurlariga nisbatan 1,12% ga yuqori boʻldi. Tajribaning 14-14,5 oyligidan to 18-18,5 oylik yoshiga qadar Alp urgʻochi echkilariga nisbatan bir xil ratsionda oziqlantirilganiga qaramasdan ancha jadal oʻsdi. 18-18,5 oylik yoshiga kelib Alp urgʻochi echkilar 120

kunlik o'sish davomida  $11,82 \pm 0,30$  kg mutlaq o'sishga erishib, tengqurlari Toggenburg urg'ochi echkilardan  $2,98$  kg. ga yoki  $25,21\%$  ortiqcha bo'ldi.

O'zbekiston sharoitida to'la qiymatli ratsion asosida boqilgan xorijdan olib kelingan sut yo'nalishidagi echkilarning kunlik va nisbiy o'sishi Sirdaryo sharoitida sanoat asosidagi majmuada boqilgan echkilarning tirik vazni bo'yicha olingan ilmiy natijalar zot andozasiga mos ravishda bo'ldi.

2-jadval

**Alp va Toggenburg zotli urg'ochi echkilarning fasllar kesimida gematologik ko'rsatkichlari**

Gematologik ko'rsatkichlar	Alp		Toggenburg	
	9 oylik yoshida (qish)			
	$X \pm S_x$	Cv, %	$X \pm S_x$	Cv, %
Eritrotsitlar, $10^{12}/l$	$14,43 \pm 0,96$	2,15	$13,72 \pm 0,57$	1,28
Leykotsitlar, yoki $10^9/l$	$10,32 \pm 0,85$	1,90	$9,74 \pm 0,57$	1,28
Gemoglobin, g	$112,94 \pm 0,49$	1,10	$112,10 \pm 0,31$	0,70
	12 oylik yoshida (bahor)			
Eritrotsitlar, $10^{12}/l$	$14,22 \pm 0,52$	1,16	$13,64 \pm 0,29$	0,64
Leykotsitlar, yoki $10^9/l$	$10,08 \pm 0,29$	0,64	$9,64 \pm 0,29$	0,64
Gemoglobin, g	$111,66 \pm 0,71$	1,58	$111,22 \pm 0,18$	0,40
	14 oylik yoshida (yoz)			
Eritrotsitlar, $10^{12}/l$	$15,56 \pm 0,28$	0,62	$15,16 \pm 0,25$	0,57
Leykotsitlar, yoki $10^9/l$	$11,56 \pm 0,64$	0,64	$11,14 \pm 0,25$	0,57
Gemoglobin, g	$111,66 \pm 0,71$	1,58	$111,22 \pm 0,18$	0,40
	18 oylik yoshida (kuz)			
Eritrotsitlar, $10^{12}/l$	$16,72 \pm 0,28$	0,62	$15,92 \pm 0,55$	1,23
Leykotsitlar, yoki $10^9/l$	$10,56 \pm 0,55$	1,23	$11,15 \pm 0,31$	0,70
Gemoglobin, g	$113,50 \pm 0,66$	1,48	$112,74 \pm 0,83$	1,85
	90 kun sut berish davri (yoz)			
Eritrotsitlar, $10^{12}/l$	$15,52 \pm 0,64$	1,44	$14,22 \pm 0,82$	1,82
Leykotsitlar, yoki $10^9/l$	$10,65 \pm 0,64$	1,43	$11,71 \pm 0,77$	1,72
Gemoglobin, g	$116,48 \pm 0,97$	2,16	$112,02 \pm 0,52$	1,16

**Echkilar qonining morfologik ko'rsatkichlari.** Qonning morfologik ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, qonning tarkibidagi eritrotsitlar miqdori barcha Alp va Toggenburg echkilarda sanoat asosida qurilgan va davrlar kesimida oziqlantirish texnologiyasi asosida boqilgan hayvonlarda fiziologik me'yor darajasida bo'ldi.

Alp va Toggenburg echkilarining 90 kunlik sut berish davrida ularning qon tarkibi o'rganildi, eritrotsitlar soni Alp zotiga mansub echkilarda quyidagicha  $8,37\%$  ortiqcha bo'lgan bo'lsa, leykotsitlar soni bo'yicha Toggenburg zotiga nisbatan Alp zotida  $9,05\%$  ga kam bo'ldi. Eritrotsit tarkibidagi gemoglobin miqdori bo'yicha  $3,02\%$  ga ortiqcha bo'lib, bu kunlik o'sishda ham o'z aksini topdi.

### **Tajribadagi echkilarning yoshi bo'yicha tana eksteryeri va indekslari**

3-jadval ma'lumotlarining dalolat berishicha, Alp urg'ochi uloqlar hamda Toggenburg urg'ochi uloqlarining tana o'lchamlari 9 oylik yoshiga kelib quyidagicha bo'ldi. Jumladan, yag'rin balandligi Alp urg'ochi uloqlarda Toggenburg zotli tengqurlariga nisbatan 2,05%, dumg'aza suyagi balandligi 1,79%, tananing qiya uzunligi 3,25%, ko'krak aylanasi o'lchami bo'yicha 3,66% ga yuqori bo'lib poycha aylanasi bo'yicha katta farq bo'lmadi.

3-jadval

#### **Alp va Toggenburg urg'ochi echkilarining yoshi bo'yicha tana o'lchamlari, sm**

Tana o'lchamlari	Alp		Toggenburg	
	<b>9-oylik yoshida</b>			
	<b>X±S<sub>x</sub></b>	<b>Sv, %</b>	<b>X±S<sub>x</sub></b>	<b>Sv, %</b>
Yag'rin balandligi	51,05±0,70	1,56	50,00±0,64	1,41
Dumg'aza suyagi balandligi	53,05±0,70	1,56	52,10±0,65	1,39
Ko'krak chuqurligi	24,05±0,16	0,35	22,00±0,18	0,47
Tananing qiya uzunligi	57,99±0,37	1,27	56,20±0,47	1,35
Poycha aylanasi	6,61±0,10	0,24	6,70±0,11	0,28
Ko'krak aylanasi	67,99±0,49	1,47	65,5±0,87	2,10
	<b>14-oylik yoshida</b>			
Yag'rin balandligi	58,70±0,37	1,15	56,50±0,42	1,24
Dumg'aza suyagi balandligi	61,08±0,55	1,30	60,00±0,47	1,15
Ko'krak chuqurligi	25,57±0,11	0,10	23,90±0,21	0,87
Tananing qiya uzunligi	60,13±0,40	1,27	58,50±0,40	1,27
Poycha aylanasi	7,05±0,09	0,23	6,90±0,11	0,28
Ko'krak aylanasi	72,5±0,97	1,65	69,20±0,99	1,85
	<b>Laktatsiyaning 90 kunligida</b>			
Yag'rin balandligi	64,56±1,41	3,15	63,04±1,41	3,15
Dumg'aza suyagi balandligi	66,64±0,67	3,30	65,08±1,43	3,20
Ko'krak chuqurligi	32,94±0,69	1,50	31,86±0,69	1,55
Tananing qiya uzunligi	74,2±1,47	3,28	73,02±1,84	4,11
Poycha aylanasi	9,32±0,18	0,40	9,06±0,20	0,46
Ko'krak aylanasi	87,34±1,12	2,8	84,5±0,78	1,93

Alp urg'ochi uloqlarning 14 oylik yoshida yag'rin balandligi Toggenburg tengqurlariga nisbatan 3,74%, dumg'aza suyagi balandligi 1,76%, tananing qiya uzunligi 2,71%, ko'krak aylanasi o'lchami bo'yicha 4,55% yuqori bo'lib, poycha aylanasi bo'yicha 2,12% ga yuqori bo'ldi.

Tajribadagi hayvonlar tana o'lchamlaridagi farqlar ularning sut berish davrining 90 kunligida ham aniqlandi. Alp zotli echkilarda Toggenburg zotli tengqurlariga nisbatan quyidagicha bo'ldi, yag'rin balandligi Toggenburg zotli tengqurlariga nisbatan 2,35%, dumg'aza suyagi balandligi 2,34%, tananing qiya

uzunligi 1,64%, ko'krak aylanasi o'lchami bo'yicha 3,25% yuqori bo'lib, poycha aylanasi bo'yicha 2,78% ga yuqori bo'ldi. ( $P < 0,999$ ).

Urg'ochi uloqlarning zotlar bo'yicha tana o'lchamlari ham hayvonlarda sezilarli darajadagi farqi aniqlandi. Sut berish davrining 90 kunligida olingan ko'rsatkichlar Alp zotli echkilarda tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan quyidagicha bo'ldi, uzun oyoqlilik indeksi 16,67%, cho'zinchoqlik indeksi 4,47%, to'lishganlik indeksi bo'yicha 1,0% kam bo'lgan bo'lsa, suyakdorlik indeksi bo'yicha 0,73% ga ortiqcha bo'ldi.

#### **Xorijdan olib kelingan urg'ochi uloqlarning davrlar kesimida ozuqa sarfi.**

Chetdan olib kelingan sut yo'nalishdagi Alp va Toggenburg zotli echkilarni keskin o'zgaruvchang iqlim sharoitida sanoat asosida qurilgan majmuada xo'jalik foydali belgilarini yuzaga chiqarishda laktatsiya davomida sut miqdorini oshirishga qaratilgan asrash va oziqlantirish ratsionlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Urg'ochi uloqlarni 7-7,5 oylik yoshidan 18 oylik yoshiga qadar

4-jadval

#### **Xorijdan olib kelingan urg'ochi uloqlarni tug'ish yoshiga qadar ozuqa sarfi (kg),**

Ozuqatur	Alp	Toggenburg	Alp	Toggenburg
	7-7,5 oylik yoshidan 18 oylik yoshiga qadar (330 kun)		18 oylik yoshidan 23 oylik yoshiga qadar (150 kun)	
Har-xil o'tlar pichani	89,5	91,5	44	43
Bug'doy somoni	30,0	31,5	79,5	77,5
Beda senaji	260	255	163,5	160
Tritikale senaji	180	177	215	212
Arpa yormasi	29	29	17	17
Bug'doy yormasi	33	33	15	15
BDK yem	52	52	27	27
Paxta shroti	0	0	8	8
Quruq modda	394,89	397,24	332,7	327,24
E.O.birligi	262,17	266,14	198,53	195,9
Almashinuvchi energiya, Mj	3928,9	3972,4	3327	3272,4
Hazmlanuvchi protein	28,8	29,78	23	22,71
Ca	3,09	3,07	2,43	2,38
P	1,0	1,01	0,79	0,78
Monokalsiy fosfat	2,31	2,31	0,9	0,9

oziqlantirish bir xil me'yorda, bir tipda oziqlantirildi. Alp urg'ochi uloqlarga 262,17 kg ozuqa birligi sarflangan bo'lsa, Toggenburg urg'ochi uloqlarda tengqurlariga nisbatan 1,49%, quruq modda esa 0,59%, 43,5 Mj almashinuvchi energiya, 3,29% ga hazmlanuvchi protein ortiqcha bo'ldi.

Uloqlarni 7-7,5 oylik yoshidan 18 oylik yoshiga qadar o'rtacha 1 kg tirik vaznini o'sishiga Alp uloqlarda o'rtacha 9,0 ozuqa birligi, 13,56 kg quruq modda 134,92 Mj almashinuvchi energiya va 98,9 g hazmlanuvchi protein sarflandi.

Toggenburg uloqlarga esa o'rtacha 1 kg tirik vazn o'sishiga 9,51 kg ozuqa birligi, 14,19 kg quruq modda, 141,9 Mj almashinuvchi energiya va 106,4 g hazmlanuvchi protein sarflandi.

Tajribadagi urg'ochi echkilar sentabr oyining 3-dekadasidan boshlab oktabr oylari ohirigacha Alp va Toggenburg zotli Yevropadan olib kelingan 1 bosh naslli takalar bilan 50 bosh urg'ochi echki juftlashtirilib, erkin usulda qochirish ishlari olib borildi.

18 oylik yoshidan 23 oylik yoshiga qadar Alp zotli urg'ochi uloqlar Toggenburg zotli tengqurlariga nisbatan quruq modda 1,64%, almashinuvchi energiya 54,6 Mj, hazmlanuvchi oqsil 1,26% ga ortiqcha bo'ldi.

5-jadval

**Sudor echkilarning laktatsiya (305 kun) davrida ozuqa sarfi, kg**

Ozuqaturi	Alp	Toggenburg
Har-xil o'tlar pichani	275	271
Bug'doy somoni	179	170
Beda senaji	400	384
Tritikale senaji	348	336
Arpa yormasi	94	94
Bug'doy yormasi	61	61
BDK yem	99	99
Paxta shroti	36	36
Quruq modda	971,91	949,67
Ozuqa birligi	627,77	617,23
Almashinuvchi energiya, Mj	9719,1	9496,7
Hazmlanuvchi protein	72,46	71,25
Ca	6,52	6,36
P	2,4	2,30
Monokalsiyfosfat	3,05	3,05

305 kunlik laktatsiya davrida Alp zotiga 971,91 kg quruq modda, 627,77 kg ozuqa birligi, 9719,1 Mj almashinuvchi energiya, 72,46 hazmlanuvchi protein, 6,52 kg Ca, 2,43 kg P sarflandi va Tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echkilarga nisbatan 2,28% quruq modda, 222,4 Mj almashinuvchi energiya hamda 1,67% hazmlanuvchi protein kam bo'ldi.

**Sudor echkilarning laktatsiya davomida sut mahsuldorligi**

Laktatsiyaning 60 kun iydirish davrida sut mahsuldorligi zotlararo quyidagicha bo'ldi. Alp zotli echkilardan o'rtacha 202,2 kg sut sog'ib olinib, Toggenburg zotiga nisbatan 4,19% ga yoki 8,4 kg. ga ( $P < 0,99$ ) ko'p bo'ldi.

Sut tarkibidagi yog' Alp zotiga mansub echkilarda o'rtacha  $3,28 \pm 0,029\%$  ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echki sutiga nisbatan 0,94% ga kam bo'ldi.

Sut yog' chiqimi 6,63 kg-ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 1,20% ga kam bo'lib, umumiy oqsil chiqimi 6,42 kg. ni tashkil etib 3,14% ga ortiqcha bo'ldi.

**Tajriba guruhlaridagi echkilarning 60 kunlik iydish davrida sut mahsuldorligi, kg**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	Alp zoti		Toggenburg zoti	
	( $X \pm Sx$ )	Cv,%	$X \pm Sx$	Cv,%
Sut miqdori, kg	202,2±12,5	5,83	191,8±11,7	4,98
Sut tarkibidagi yog', %	3,28±0,045	1,11	3,47±0,034	2,77
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,18±0,029	1,71	3,21±0,021	1,95
Sut yog'i chiqimi, kg	6,63±0,86	1,05	6,65±0,63	0,85
Sut oqsili chiqimi, kg	6,42±0,47	1,56	6,16±0,52	1,70
4% li sut miqdori, kg	165,8±1,7	5,64	166,39±2,7	3,39

Echkilarning 60 kunda bergan sutining 4% li miqdori Alp zotiga mansub echkilarda 165,8 kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echkilardan 1,43% ga kam bo'ldi ( $P < 0,99$ ).

**Tajriba guruhlaridagi echkilarning 145 kun laktatsiyasi davomidagi sut mahsuldorligi, kg**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar			
	Alp zoti		Toggenburg zoti	
	$X \pm Sx$	Cv,%	$X \pm Sx$	Cv,%
Sut miqdori, kg	372,06±11,3	3,83	356,2±9,7	3,12
Sut tarkibidagi yog', %	3,22±0,045	1,04	3,31±0,034	2,77
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,11±0,039	1,71	3,17±0,021	1,95
Sut yog'i chiqimi, kg	11,98±0,86	1,64	11,79±0,63	3,55
Sut oqsili chiqimi, kg	11,57±0,56	1,21	11,29±0,47	3,70
4%-li sut miqdori, kg	299,51±9,7	11,64	294,75±8,7	9,39

Laktatsiyaning 145 kun sog'im davrida zotlararo quyidagicha bo'ldi. Alp zotli echkilardan o'rtacha 372,06±11,3 kg sut sog'ib olinib, bu ko'rsatkich tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 15,86 kg-ga ( $P < 0,99$ ) yoki 4,26% ga ortiqcha bo'ldi. Sut tarkibidagi yog' Alp zotiga mansub echkilarda o'rtacha 3,11±0,039% ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echki sutiga nisbatan 1,58% ga yuqori bo'ldi. Sut yog' chiqimi 11,98±0,86 kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 1,59% ga ortiqcha bo'ldi. Umumiy oqsil chiqimi 11,57±0,56 kg. ni tashkil etib, 2,42% ga ortiqcha bo'ldi. Echkilarning 145 kunda bergan sutining 4% li sut miqdori Alp zotiga mansub echkilarda 299,51±9,7 kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echkilardan o'rtacha 1,59% ga ortiqcha bo'ldi. ( $P < 0,99$ ).

Laktatsiyaning oxirgi 100 kunlik davrida echkilarni sutdan chiqarish va keyingi qochirishga tayyorlashni ko'zda tutib ozuqalar ulushi kamaytirildi, kunlik ozuqa sarfi 1,78 kg ozuqa birligi, 2,49 kg quruq modda, 249 Mj almashinuvchi energiya, hamda

217 g hazmlanuvchi oqsil sarflandi. Laktatsiyaning so‘ngi 100 kun sog‘im davrida zotlararo quyidagicha bo‘ldi. Alp zotli echkilardan o‘rtacha 143,23±7,3 kg sut sog‘ib olinib, bu ko‘rsatkich tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 6,23 kg. ga ( $P < 0,99$ ) yoki 4,35% ga yuqori bo‘ldi.

8-jadval

**Tajriba guruhlaridagi echkilarning laktatsiyasining 100 kun davomidagi sut mahsuldorligi**

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar			
	Alp zoti		Toggenburg zoti	
	X ± Sx	Cv,%	X ± Sx	Cv,%
Sut miqdori, kg	143,23±7,3	9,83	137,0±6,7	8,98
Sut tarkibidagi yog‘, %	3,18±0,045	2,77	3,23±0,034	2,77
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,15±0,049	1,71	3,17±0,021	1,95
Sut yog‘i chiqimi, kg	4,55±0,77	1,64	4,43±0,63	2,55
Sut oqsili chiqimi, kg	4,45±0,37	1,56	4,43±0,57	1,70
4%-li sut miqdori, kg	113,87±7,7	9,64	110,63±5,7	7,39

Sut tarkibidagi yog‘ Alp zotiga mansub echkilarda o‘rtacha 3,15±0,049% ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echki sutiga nisbatan 0,63% ga kam bo‘ldi. Sut yog‘ chiqimi 4,55±0,77 kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 2,65% ga, umumiy oqsil chiqimi 4,45±0,37 kg. ni tashkil etib, 0,45% ga yuqori bo‘ldi.

Echkilarning 100 kunda bergan sutining 4% li sut miqdori Alp zotiga mansub echkilarda 113,87±7,7 kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga mansub echkilardan o‘rtacha 2,84% ga ko‘p bo‘ldi. ( $P < 0,999$ ).

**Echki og‘iz sutining kimyoviy tarkibi.** Og‘iz suti tarkibida yog‘ miqdori 1-kunda o‘rtacha Alp zotida 14,78% ni tashkil qilib, yog‘ miqdorining quyi chegarasi 13,78%, yuqori chegarasi esa 16,25% ni tashkil etib, og‘iz sutining 5-kuniga nisbatan 3,35 martaga ortiqcha bo‘ldi. Og‘iz sutidagi yog‘ miqdori laktatsiya kunining ortishi sababli asta-sekinlik bilan pasayib bordi. Bu ko‘rsatkich laktatsiya davrining 2-kunida o‘rtacha 10,43%, 3-kunida o‘rtacha 8,73%, 4-kunida o‘rtacha 6% ni tashkil qilib, 5-kunga kelib og‘iz sutining tarkibidagi yog‘ miqdori o‘rtacha 4,41% ni tashkil etdi.


Og‘iz suti tarkibidagi quruq modda laktatsiyaning 1-kunida o‘rtacha 27,36% tashkil qilib, bu ko‘rsatkich 24,62-30,09% ni tashkil qildi. Laktatsiya kunlarining ortishi bilan quruq moddaning foizi kamayib borib, 5-kunga kelib o‘rtacha 14,49% ni tashkil qildi.

Toggenburg zotli echkilarda og‘iz sutining birinchi kunidagi tarkibidagi yog‘ miqdori o‘rtacha 14,38% ni tashkil qilib, og‘iz suti tarkibidagi yog‘ miqdori quyi chegarasi 12,94%, yuqori chegarasi 15,82% ni tashkil etib, Alp zotli echkisiga nisbatan 2,71% ga kam bo‘ldi.


Og‘iz sutining 5-kuniga nisbatan esa 28,51% ga kamaydi. Og‘iz sutidagi yog‘ miqdori laktatsiya kunining ortishi tufayli asta-sekinlik bilan pasayib bordi. Bu

ko'rsatkich laktatsiya davrining 2-kunida o'rtacha 10,06%, 3-kunida o'rtacha 8,38%, 4-kunida o'rtacha 5,67% ni tashkil qilib, 5-kunga kelib og'iz sutining tarkibidagi yog' miqdori o'rtacha 4,10% ni tashkil etdi.

1-rasm



2-rasm



**Iqtisodiy samaradorlik.** Podani to'ldirishdagi Alp zotli echkilarning bir boshini o'rtacha sotish narxi 3104634,0 so'mni, Toggenburg zotli echkilarning o'rtacha bir boshini sotish narxi 2900534,0 so'mni tashkil qildi yoki tengqurlari Toggenburg zotli echkilar ortiqcha 204100 so'mga sotildi. Sotishdan olingan sof foyda Alp zotli echkilarda 770323,0 so'mni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 198852 so'mga ortiqcha bo'ldi. Rentabellik darajasi Alp zotli echkilarda 33,0% ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 8,5% ga yuqori bo'ldi.

“INZIM-TEX” echkichilik naslchilik xo‘jaligida tadqiqot o‘tkazilgan 2019-2020 yillarda 1 kg echki suti 4500 so‘mdan realizatsiya qilinib sotilgan, sutdan tushgan foyda o‘rtacha Alp zotli echkilarda 3228570,0 so‘mni, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarda o‘rtacha 685,0 kg sut sog‘ib olinib, sut sotishdan olingan foyda 3082500,0 so‘mni tashkil qilidi va Alp zotli echkilardan o‘rtacha tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 146070 so‘m yuqori foyda olindi.

9-jadval

**Iqtisodiy samaradorlik (1 boshga, so‘m)**

Ko‘rsatkichlar	Alp	Toggenburg	Alp	Toggenburg
	7,5-23 oy	7,5-23 oy	Sog‘in davrida	Sog‘in davrida
1 bosh naslli echkini sotish narxi	3104634,0	2900534,0	-	-
Sog‘ib olingan sut	-	-	717,49	685,0
Sotilgan sut, so‘m	-	-	3228570,0	3082500,0
Ozuqa harajatlari	833990	828715	1124290,0	1111060,0
Oylik harajatlar	333596	333596	461685,40	461685,40
Amortizatsiya	465366,42	465366,42	419713,70	419713,70
Boshqa harajatlar	701385,59	701385,59	395698,80	395698,80
Jami harajatlar	2334311,01	2329063,01	2401387,9	2388157,9
Sof foyda	770323,0	571471,0	827182,1	694342,1
Rentabellik darajasi, %	33,0	24,5	34,4	29,07

Jami harajatlar Alp zotli echkilar uchun o‘rtacha 2401387,9 so‘mni Toggenburg zotli echkilarda esa 2388157,9 so‘mni tashkil qildi. Rentabellik darajasi Alp zotli echkilarda 34,4,0% ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 5,33% ga yuqori bo‘ldi.

**XULOSALAR**

1. Chetdan olib kelingan sut yo‘nalishdagi Alp va Toggenburg zotli echkilarni keskin o‘zgaruvchan iqlim sharoitida sanoat asosida qurilgan majmuada boqish tirik vaznini jadal oshishiga olib keldi. Alp zotli urg‘ochi echkilarning 18 oyligida tirik vazni  $59,79 \pm 0,67$  kg. ni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg urg‘ochi echkilaridan 2,69% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi. Tirik vazndagi ishonchlilik darajasi farqi ( $P > 0,99$ ) bo‘lgan.

2. Bir xil ratsionda oziqlantirilgan urg‘ochi echkilarda tajribaning 14-14,5 oyligidan 18-18,5 oylik yoshigacha Alp urg‘ochi echkilariga nisbatan 120 kunlik o‘sish davomida  $11,82 \pm 0,30$  kg mutlaq o‘sishga erishib, tengqurlaridan 2,98 kg. ga yoki 25,21% yuqori vaznga ega bo‘lgan.

3. Yoz oylarida tajribadagi Alp va Toggenburg urg‘ochi echkilarning tana harorati ertalabga nisbatan tushda  $0,3-0,2$  °C ga oshishi kuzatildi. Ularni nafas olishi va tomir urishi ham tegishlicha: tushcha Toggenburg zotida 2,4-7,4, Alp zotida 5,4-10,2 marta ertalabki ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lishi aniqlangan.

4. Alp zotli echkilarning issiqlikka chidamlilik darajasi (ICHD) bilan ularning sut mahsuldorligi orasida bog‘lanuvchanlik Alp echkilarnida  $r = + 0,325 \pm 0,19$ ,

Toggenburg zotiga mansub echkilarda esa  $r = \pm 0,439 \pm 0,18$  (IChD)-ni tashkil qildi. Shuni qayd etish kerakki Alp va Toggenburg zotli echkilarning sut tarkibidagi yog' va oqsil (IChD) o'rtasidagi manfiy bog'lanuvchanlik aniqlandi va Alp zotida  $-0,203 \pm 0,19$ , Toggenburg zotida  $-120 \pm 0,20$  ga teng bo'ldi. IChD o'zgaruvchanlik koeffitsientini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkich har ikkala zot o'rtasida 5,3-6,9% ga teng bo'lganligi aniqlangan.

5. Qonning morfologik tarkibi 14 oylik yoshiga kelib Alp zotli echkilarda quyidagicha bo'ldi, eritrotsitlar miqdori 2,57%, leykotsitlar miqdori 3,63% ga, gemoglobin miqdori bo'yicha esa katta farq bo'lmagan.

6. Tajribadagi urg'ochi echkilarning 14 oylik yoshiga kelib tana indeksleri zotlararo quyidagicha uzun oyoqlilik indeksi 57,0% ni tashkil qilib, Toggenburg zotli tengqurlariga nisbatan 0,6%, cho'zinchoqlik indeksi bo'yicha 1,5%, to'lishganlik indeksi bo'yicha esa 11,0%, bo'yadorlik va suyakdorlik indeksleri bo'yicha 1,8- 0,2% ga yuqori bo'lgan,

8. Sog'in davrida 60 kun iydirish, 145 kun asosiy sut davri, 100 kunlik sut chiqarish jami 305 kun davrida Alp zotli echkilarga 717,49 kg ni tashkil qilib, Toggenburg zoti echkilariga nisbatan 4,45% ga yuqori bo'ldi. Alp zotli echkilarga 1701,5 kg quruq modda 1096,45 kg ozuqa birligi, 17015,0 Mj almashinuvchi energiya, 125 kg hazmlanuvchi protein sarflangan bo'lsa, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga shunga 1674,15 kg quruq modda, 1079,21 kg ozuqa birligi, 16741,5 Mj almashinuvchi energiya, 123,74 kg hazmlanuvchi protein sarflangan.

9. Alp echkilarining o'rtacha yelin aylanasi tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 3,87%, yelin chuqurligi 6,07%, so'rg'ich aylanasi 7,49%, so'rg'ich oralig'i o'lchami 5,99% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan;

10. Sotishdan olingan sof foyda Alp zotli echkilarda 770323,0 so'mni tashkil qilib, tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 198852 so'mga yuqori bo'ldi. Rentabellik darajasi Alp zotli echkilarda 33,0% ni tashkil qilib, bu ko'rsatkich tengqurlari Toggenburg zotiga nisbatan 8,5% ga yuqori bo'ldi.

11. Sut sotishdan olingan foyda o'rtacha Alp zotli echkilardan 3228570,0 so'mni, tengqurlari Toggenburg zotli echkilardan o'rtacha 685,0 kg sut sog'ib olinib, sut sotishdan olingan foyda 3082500,0 so'mni tashkil qilib, Alp zotli echkilardan tengqurlari Toggenburg zotli echkilarga nisbatan 146070 so'm ko'p foyda olindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD  
06/09.07.2020.Qx/V.117.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ФИЛИАЛЕ  
САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА  
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И  
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

---

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ЖИВОТНОВОДСТВА  
И ПТИЦЕВОДСТВА**

**ДАВРОНОВ БАХТИЁР ХАСАНОВИЧ**

**ИЗУЧЕНИЕ ХОЗЯЙСТВЕННО-ПОЛЕЗНЫХ ПРИЗНАКОВ  
ИМПОРТИРОВАННЫХ КОЗ АЛПИЙСКОЙ И ТОГГЕНБУРГСКИХ  
ПОРОД**

**06.02.03 - Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ(PHD) ПО  
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

**Ташкент- – 2023**

**Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером V2019.3.PhD/Qx481.**

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Научно-исследовательском институте животноводства и птицеводства.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета ([www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

- Научный руководитель:** **Рузиев Рахмонкул Истамович,**  
кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник.
- Официальные оппоненты:** **Шаптаков Эркин Суюнович**  
доктор сельскохозяйственных наук, доцент.
- Рахимов Мадамин Алиджонович**  
кандидат сельскохозяйственных наук, старший научный сотрудник.
- Ведущая организация:** **Ташкентский государственный аграрный университет.**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным и ветеринарным наукам PhD.06/09.07.2020.Qx/V.117.01 при Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

С данной диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии. (Адрес: 111801, Ташкентская область, Чиланзарский район, 20-квартал, дом-35А Тел: (+99871) 216-135; email: [svmi.tfiyandex.ru](mailto:svmi.tfiyandex.ru), [www.svmitf.uz](http://www.svmitf.uz), малый конференц зал Ташкентского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года)

**Н.Э.Юлдашев,**  
Председатель научного совета по присуждению учёной степени, д.в.н., профессор.

**М.Э.Гойипова,**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёной степени, д.ф.в.н. (PhD).

**С.И.Мавланов,**  
